

Qadr-qimmatim, tayanchim va iffixorimsan, mustaqil O'zbekiston!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BILIMDONLAR – «QUYOSHLI»DA



O.ORIPOV olgan suratlilar

Istiqlol yillarida mamlakatimizda yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni o'z iqtidor va qobiliyatini to'la namoyon etishiga sharoit yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Yosh avlodning intellektual rivojlanishi, ma'naviy va jismoniy kamoloti yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Yaqinda Toshkent viloyati, Bo'stonliq fumanida joylashgan «Quyoshli» intellektual rivojlantirish oromgohida bo'lganimizda, bunga yana bir bor amin bo'ldik.

Davomi 3-betda

Jurnalist – jamiyat ko'zgusi

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ommaviy axborot vositalari faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash borasida ham tub islohotlar amalga oshirilyapti. Soha rivojiga doir qator qarorlar hayotga tatbiq etilayotgani, jurnalistlarning ijodiy faolligi va mahoratini oshirish, mashaqqatli va sharaflı mehnatlarini munosib baholash, ularga yuksak e'tibor va ehtirom ko'rsatish



Z. NISHONOVA olgan suratalar

SHARAFLI KASB MAS'ULIYATI

borasidagi ezgu ishlar ham tahsinga sazovor. Ana shu hurmat-u e'tiborning bir namunasi sifatida, mana 20 yildirki, 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida yurtimizda keng tantana qilib kelinayapti.

Darhaqiqat, bu soha xodimlari har qancha e'zozga, ehtiromga munosiblar. Bugungi tig'iz axborotlar asrida, globallashuv jarayoni hayotimizga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan ayni kunlarda, ommaviy axborot vositalari xodimlari zimmasidagi mas'uliyat yanada oshib bormoqda. Hozirda yurtimizda ana shu mas'uliyat zalvorini chuqur his qilayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, chet tillarini puxta egallagan

jurnalistlarning yangi avlodi shakllanib kelayotgani barchamizni quvontiradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan kichikintoylardan tortib, maktab, litsey, kollej o'quvchilari, qo'yingchi, barcha yurtdoshlarimizning yoshiga, didiga mos va xos bo'lgan sevimli nashrlari, tele va radiokanallari mavjud. O'zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi tarkibida «Madaniyat va ma'rifat», «Dunyo bo'ylab», «Bolajon» telekanallarining tashkil etilishi esa ijodiy raqobatni, tanlash imkonini yanada oshiradi.

Fursatdan foydalanib, milliy jurnalistikamiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan barcha hamkasblarimizni o'tgan kasb bayramlari bilan muborakkob etamiz!



G'URUR VA IFTIXOR RAMZI

Mustaqillik yillarida jonajon diyorimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni yuksalib, bunyodkor xalqimiz olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritgani bugun hech kimga sir emas. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida erishgan yutuqlari ko'plab dunyo xalqlari uchun o'rnatqan sifatida e'tirof etilayotgani bugun shu yurtda yashayotgan har bir yurtdoshimiz qalbiga cheksiz faxr tuyg'ularini jo etadi.

Istiqlol sharofati bilan milliy davlat ramzlarimizga ega bo'ldikki, ular xalqimizning tarixi, orzu-intilishlari, shon-u shavkatini o'zida namoyon etadi. Shu bois, davlat ramzlarimiz qarshisida turganimizda, madhiyamiz yangraganida o'ng qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, o'zgacha hurmat bajo keltiramiz.

Jonajon O'zbekistonimiz mustaqilligining asosi sifatida 1992-yil 2-iyul «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mana 21 yildirki, xalqimiz ushbu qutlug' sanani bayram sifatida keng nishonlamoqda.

Juda katta ma'no-mazmunga ega, yuksak mahorat bilan ishlangan, o'zida xalqimizning orzu-istaklarini, ajdodlar yodi hamda millat g'ururini mujassam etgan gerbimiz dunyo mamlakatlarining davlat ramzlari qatorida o'z munosib o'rniga egadir. Siz ham, qadrlı o'quvchilar, davlat ramzlarimizni muqaddas timsol sifatida e'zozlang. Bu Sizning tug'ilib o'sgan Vataningizga, xalqingizga bo'lgan hurmatingiz, muhabbatingiz ramzi bo'lsin.


Taraddud

TIL O'RGANISH – TARAQQIYOT OMILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2013–2014-o'quv yilidan respublikamizning barcha umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan boshlab chet tillar ta'limi uzluksiz joriy etiladi.

Ayni paytda ta'lim muassasalarini malakali kadrlar, xorijiy tillar kabinetlarini zamonaviy axborot kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari hamda anjomlari bilan ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Mazkur qarorning ijrosi bo'yicha Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiy shahridagi 1-, 11-, Navbahor tumanidagi 1-, 26-, Xatirchi tumanidagi 7-, 10-, Qiziltepa tumanidagi 26-, Karmana tumanidagi 15-, Nurota tumanidagi 54-umumta'lim maktablari tajriba-sinov maktablari sifatida belgilanib, 1-sinflar uchun chet tilidan yaratilgan o'quv dasturi va darslik majmualari qo'lyozmalarini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, tajriba-sinov o'tkazilayotgan 9 ta sinfdan 308 nafar o'quvchining ota-onalari bilan suhbat o'tkazilib, bu ishlarning mazmun-mohiyati, kutilayotgan natijalar haqida hamda bu borada ota-onalar oldiga qo'yiladigan vazifalar to'g'risida tushunchalar berildi. Navoiy shahar 11-IDIUMda shahar miqyosida ilmiy-amaliy seminar trening tashkil etildi. «Til o'rganish – taraqqiyot omili», «Xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usullari va ahamiyati» kabi mavzularda viloyat miqyosida uslubiy-amaliy seminarlar o'tkazildi.



Ularda, asosan, tajriba-sinovdagi 1-sinf dars jarayonlariga barchani jalb etib, tumanlardan kelgan o'qituvchilarga darslik va uning qulayliklari haqida tushunchalar berildi. Ta'lim maskanlarida «Til – do'stlik ramzi», «Happy English» kabi mavzularda kechalar o'tkazildi. O'qituvchilar chet tillarini bilishning Umumyevropa kompetentsiyalari: o'rganish, o'rgatish va baholash (CEFR), ya'ni yangi DTS haqida ma'lumotlarga ega bo'lishayapti. Ayni kunda 434 nafar xorijiy tillar o'qituvchilari o'z malakalarini oshirmoqda. Shuningdek, Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi 28-umumta'lim maktabida ham ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy tillar kabinetlari qayta jihozlandi. Chet tillaridan dars beradigan mutaxassislarning malakasi oshirilib, 1-sinflarga multimedia asosida dars o'tishlari uchun kompyuterlar shay qilib qo'yildi.

– Ayniqsa, ingliz tili o'qituvchisi Gulmira Abduvohidovanning tashabbusi tahsinga sazovor, – deydi maktab rahbari Dilorom Abdullayeva. – U ayni kunlarda

maktab qoshidagi yozgi dam olish oromgohida faoliyat yuritib, tajriba ortiryapti. Kichikintoylarga ingliz tilida she'r va qo'shiqlar o'rgatib, so'z boyligini oshishiga, chet tilini puxta o'zlashtirishlariga zamin yaratmoqda.

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 2-umumta'lim maktabida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan tajribali ingliz tili fani o'qituvchisi Gulsora Jumayevaning faoliyati ham ibrat qilsa arzigudek. Opa shogirdlarining o'quv yili davomida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishlariga hissa qo'shish maqsadida maktab qoshida to'garak tashkil qildi. Haftada ikki marta bo'lib o'tadigan to'garak mashg'ulotlariga bilimga chanqoq o'g'il-qizlar katta qiziqish bilan qatnashmoqda.

Zamonaviy texnik vositalardan unumli foydalangan holda o'tilgan har bir dars o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirib, fanlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishi barchamizga ayon. Shuning uchun ham barcha hududlardagi ta'lim maskanlarida o'qitishning shu jihatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aziz o'quvchilar, Siz yozgi ta'tilda miriqib dam olayotgan ayni damlarda ta'lim maskanlaringizda xorijiy tillarni puxta o'rganishingiz uchun shart-sharoitlar yaratilyapti, imkoniyatlar eshigi yanada kengroq ochilyapti.

Shunday ekan, ustoz-muallimlaringiz mehnatini qadrlab, til o'rganishga astoydil bel bog'lang. Dunyoga chiqib, o'z bilimingiz, intellektual salohiyatingiz, o'zligingizni namoyon eting. O'zbek yoshlarining hech bir sohada hech kimdan kam emasliklarini isbotlang.

Naima KARIMOVA,
Toshkent bank kolleji ingliz tili fani o'qituvchisi,
Feruza JALILOVA

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tasarrufidagi ushbu oromgohda ayni kunlarda «Bilimlar bellashuvi – 2013» respublika tanlovining yakuniy bosqichida ishtirok etgan 262 nafar iqtidorli

maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Xususan, internet tarmog'iga ulangan kompyuter xonasi, kutubxon, vokal, raqs xonalari, ochiq va yopiq sport maydonchalari, suzish havzalari o'quvchilar ixtiyorida, – deydi «Qu-

Darhaqiqat, oromgohning «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi tomonidan o'tkazilayotgan «Shu aziz Vatan barchamizniki», «Zilol suvning qadri», «Kitob – mening do'stim», «Biz sog'lom turmush tarafdorimiz», «Yoshlar – gilyovandlikka qarshi» kabi mavzulardagi

(Davomi. Boshli 1-betda)

BILIMDONLAR – «QUYOSHLI»DA



yoshli» intellektual rivojlantirish oromgohi boshlig'i Yo'Ichiboy Rahimjonov.

Aytish mumkinki, bu yerda nafaqat iqtidorli bolalar, balki yuqori pedagogik mahorati bilan yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan malakali o'qituvchi-murabbiylar ham dam olish bilan birga, o'quvchilar uchun fan yo'nalishlari bo'yicha mahorat darslari, ijodiy o'quv mashg'ulotlari, viktorinalar,

tadbirlar o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

«Quyoshli» intellektual rivojlantirish oromgohi ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbirda o'g'il-qizlar ishtirokida «O'zbekiston – baxtiyor bolalar mamlakati» nomli bayram tadbiri namoyish etildi. Unda ishtirok etgan bilimlari, zukko o'g'il-qizlarimiz chiqishlarini ko'rib, ularning nafaqat ilm-fan, balki san'at sohasida ham havas qilsa arzigudek iqtidor egasi ekanliklariga amin bo'ldik.

Tadbirda o'quv yilini muvaffaqiyatli yakunlagan bolajonlarga O'zbekiston kasaba uyushmalari



o'quvchi-yoshlar maroqli hordiq chiqarishmoqda. Shuningdek, oromgoh 30 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni ham o'z quchog'iga olgan.

Kuni kecha ushbu oromgohda 1-mavsumning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi vakillari, taniqli olimlar, ustoz va murabbiylar, OAV xodimlari ishtirok etdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar yurtimizda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ta'til davrida sog'lomlashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani yuksak samara berayotganini ta'kidladilar.

– Oromgoh 18 gektar maydonni egallagan bo'lib, bu yerda bolalarning jismonan chiniqishlari, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashlari, bir so'z bilan aytganda,

tanlovlar, musobaqa va nazm kechalari o'tkazmoqdalar.

– Bu yerda hordiq chiqarish bilan birga, bilimimni yanada mustahkamlab, tengdoshlarim bilan o'zaro fikr almashish imkoniga ega bo'layotganimdan behad mamnunman, – deydi Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 6-maktabning 8-sinf o'quvchisi, biologiya fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi – 2013» respublika bosqichi g'olibasi Madina O'rinboeva.

Federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maxsus Diplomlar, esdalik sovg'alari topshirildi.

Sa'dullo **TURSINOV**,
Shahzoda **SHAROPOVA**

H.HAMIDULLAYEV olgan suratlardir

MAHALLAMIZ OROMGOHIDA

Mahallamizda yozgi sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etilgan. Unda har kuni o'tkaziladigan turli tadbir, musobaqalarda faol ishtirok etib, maroqli dam olmoqdami. Futbol jamoamiz bilan tuman miqyosidagi musobaqalarda ham qatnashib, faxrli o'rinni egalladik. Shuningdek, badiiy kitoblar o'qiydiz, bahribayt aytib, she'riy mashqlar yozamiz. Shunda tilimga quyidagi misralar quyilib keladi:

*Yurtim biz bilan ko'rkam,
Orzularga oshyon.
Ularga yetmoq uchun
Hamisha bordir imkon.*

Bizga yaratilayotgan imkoniyatlarni qadrlab, til o'rganishni ham maqsad qilganman. Ta'tildagi rejamga kiritganimday, har kuni ingliz tilidagi yangi so'zlarni yodlab bormoqdaman. Do'stlarim ham shunday mashg'ulot bilan bandlar. Ayni kunlardan Siz ham unumli foydalanib, ingliz tilini o'rganishga kirishing.

Azizbek **JUMABOYEV**,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi
49-umumta'lim maktabi o'quvchisi



ENGLISH



*Xalqimizda
«Til bilgan –
el biladi» degan
ibratli naql bor.
U bejiz aytilmagan,
biz qancha ko'p
til bilsak,
dunyoqarashimiz
shuncha kengayadi.*

TIL O'RGANYAPMIZ

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan maktablarda ingliz tili fanini chuqur o'qitilishiga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, bizning maktabimizda ham talaygina ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Chet tili to'garaklari tashkil etildi, kutubxonamiz ingliz tilidagi bir qancha qo'llanmalar, badiiy kitoblar bilan boyidi. Biz yozgi ta'tilda ham bu to'garaklarda shug'ullanib, ingliz tilini o'rganib bormoqdami. Bu esa yangi o'quv yilidagi yaxshi va a'lo baholarimiz garovidir.

Nilufar **AKOBIROVA**,
Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi
17-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi



SH. MUSAKOVA olgan suratlar

«LOCHIN» DA HAR KUNI BAYRAM

Ustoz, o'zbek xalq ertaklaridan «Zumrad va Qimmat» asosida kichik sahna ko'rinishi tayyorlaymiz, deganida, qizaloqlar shoshib qolishdi.

— Men Zumrad bo'laman, — dedi Nasiba birinchilardan bo'lib.

— Yo'q, men Zumrad bo'lay, — qo'shildi dugonasi.

— Qimmat dangasa, odobsiz qiz, men aslo Qimmat bo'lmayman, — deya go'yo ustozini ogohlantirdi Nargiza.

Shunda ustoz:

— To'g'ri, sizlar odobli va aqllisiz. Ammo tengdoshlaringiz orasida Qimmatga o'xshagan qizlar ham topiladi. Ularga saboq berish, to'g'ri yo'lga boshlash uchun sizlarning yordamingiz kerak. Salbiy obrazni ta'sirli qilib talqin etish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Ustozning gaplaridan bolajonlar to'g'ri xulosa chiqarishdi va tadbirga tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Bayram tadbiri kutilgandan ham ziyoda o'tdi.



*Nurafshon zaminning farzandi bizlar,
G'urur, shijoat-la qaymoq yuraklar.
Yo'llaymiz hur avlod — biz o'g'il-qizlar,
Jonajon xalq uchun o'qib-tilaklar.*

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-maktabda tashkil etilgan «Lochin» oromgohida har kuni bayram, tadbirlar tadbirlarga ulanib, bolajonlarni sira zikrlab qo'ymayapti.

Sport, bichish-tikish, biser, to'qish, sirli mo'yqalam, mohir qo'llar kabi to'garaklar bolajonlar bilan gavjum. To'g'ri-da, ta'til hunar o'rganish uchun eng qulay fursat. Buni anglagan bolajonlar fidoyi ustozlari — Muqaddas opa Ismoilova, Mahfuza opa Norxo'jayeva, Muhabbat opa Qosimova, Zilola opa Tursunova, Nilufar opa Abdullayeva, Shahlo opa Shokirovadan hunar sirlarini qunt bilan o'rganishyapti.

Bolajonlarning miriqib dam olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilayotgan oromgoh boshlig'i Nasiba opa Shukurovadan ota-onalar ham, mahalla faollari ham birdek minnatdor.

Ana, oromgohda yana tadbir boshlandi. Bolajonlarning quvunchi ichiga sig'maydi. Biri she'r aytadi, biri musiqa chaladi, biri qo'shiq kuylaydi, ularning jarangdor ovozlari maktab uzra yangraydi:

DOIMO BO'LSIN SHODLIK!

Yozgi ta'tilda oromgohda dam olishning gashti boshqacha-da! Do'stlar talaygina, turli to'garaklar-uchun cho'milish havzasi ham yonginangizda! Dam olish uchun uydan uzoqqa ketish ham shart emas.

Bu yil statsionar oromgohlarda dam olish imkoniyati bo'lmagan o'quvchilarning ta'til kunlarini soz o'tkazishlari uchun poytaxtimizdagi 100 ga yaqin maktablarda kunduzgi sog'lomlashtirish va 36 ta maktabda yozgi dam olish oromgohlari tashkil etilgan.

qo'shiq aytishga qaysi bola qiziqmaydi, deysiz?! Guruh sardori Zebunniso O'rolboyeva oromgohda ingliz tili to'garagi ham tashkil etilganidan xursand. Chunki u ta'tilda til o'rganishni maqsad qilgan edi-da. Abdulaziz Ramazoniy esa sport to'garagida dzyudo bilan shug'ullanmoqda. Eh, shuncha tadbir-ur



S.GODIROVA olgan surat

Jumladan 300-maktab qoshidagi «Kamalak» nomli kunduzgi oromgohda miriqib hordiq chiqarayotgan bolajonlarning kun tartibini kuzatsangiz, havasingiz keladi. Axir ertalab kuy-qo'shiq hamohangligida do'stlar bilan badantarbiya qilishning gashtii boshqacha-da! Guruhingiz bilan saf tortib, oromgoh shiorini aytganicha nusxataga o'tlanishga nima deysiz?! Abdu-g'ani aka Nurmuhammedov boshchiligida mazali taomlar, mevalar sharbatiyu na'matak damlamasini tayyorlashda bir chindim mehrini ayamayotgan oshpazlar ham bolalar xizmatida. Shu tariqa, tamaddi qilib olgach, bir guruh dam oluvchilar cho'milish havzasiga, boshqalari to'garaklarga o'tlanishadi. «Omad» guruhi bolalari «Sehri ovoz» to'garagi mashg'ulotlarini juda yaxshi ko'rishadi. To'g'ri-da, jo'rovoz bo'lib

sharoitlarni tashkillashtirishning o'zi bo'lmaydi... Buning uchun maktab rahbari Nasiba opa Kamolovaning yelib-yugurganlari ko'rinib turibdi. Oromgoh rahbari Munira opa Yusupovaning sa'y-harakatlarini aytmaymiz?! Atrofga chiroy bag'ishlab turgan yelim gullarni ham Munira opaning o'zlari qizlar bilan birgalikda oddiy idishlardan yasashgan ekan. Bosh tarbiyachi Natella opa Kazi, bosh yetakchi Marhabo opa Xolboyeva ularga har ishda ko'makchi...

Ana xolos, bolalar uyga o'tlanishayapti chog'i, oromgoh qo'shig'i yangramoqda. Maroqli o'tgan vaqtning tez o'tganini ham sezmay qolasan, kishi. Biz har doim bo'lsin shodlik, har doim bo'ling omon, deya tilak bildirib, bolajonlar bilan xayrlashdik.

Poytaxtning Yunusobod tumanidagi 274-umum-ta'lim maktabi qoshida tashkil etilgan

«Yulduzcha» oromgohida «Sajdahimshan, Vatan!» shiori ostida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, «Nuroni» jam'ar-masining yoshlar bilan ishlash guruhi a'zosi Gulchehra Karimova hamda «O'qituvchi» nashriyat-matbaa ijodiy uyi muharrirlari ishtirok etishdi.

Yunusobod dahasi Toshkentning so'lim, bahavo mavzalaridan biri hisoblanadi. Saraton quyoshi zabtiga olib, nurlarini ayovsiz sochib turgan ayni pallada yam-yashil archalar bilan burkangan bu maskanda esayotgan g'ir-g'ir shabada kishiga huzur bag'ishlaydi. Favvoralardan otilib turgan muzdek suv zarralari dillarga xush yoqadi. Maktabga kirib kelar ekanmiz, bolajonlarning shodon ovozlari eshitib, roliklarda miriqib uchayotgan, har xil harakatli o'yinlar o'ynayotgan o'g'il-qizlarni ko'rib, ularning maroqli dam olayotganlariga amin bo'ldik.



Maktabda tashkil etilgan kunduzgi oromgoh rahbari Tuyg'unoy Ibragimova, bosh tarbiyachi Dilorom Mo'minova bizni iliq qarshi olishdi. Ular bilan suhbatlashib, quyidagilarni bilib oldik.

To'rtta mavsumga bo'lingan oromgohga 1–6-sinf o'quvchilari jalb etilgan. Har mavsumda mahallaning kam ta'minlangan oila farzandlaridan besh nafari bepul dam oladilar. Mazkur oromgohda hozirgi mavsumda 140 nafar o'quvchi miriqib dam olmoqda. O'quvchilar 3 mahal issiq ovqat bilan ta'minlanganlar. Kuni kecha dam oluvchilar hayvonot bog'iga borib, u yerdan bir olam taassurot bilan qaytishgan bo'lsa, bugun qiziqarli uchrashuvda qatnashishdi.

Mehmonlar o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob qaytardilar. Ayniqsa, bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjon bilan bo'lgan jonli muloqot ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga shubha yo'q. Kechada faol ishtirok etgan o'quvchilarga nashriyat xodimlari kitoblarni taqdim etishdi. Tadbir so'ngida o'quvchilar ijrosida sho'x kuy va qo'shiqlar ijro etildi.

O'z muxbirlarimiz materiallari asosida tayyorlandi

Qaysi qatordagi so'z bilan gaplar mazmuni bir-biriga to'g'ri kelganini belgilab, o'z bilimingizni sinab ko'ring:

Words:	Definition:
1) Sunday	a) The tenth month of the year.
2) Tuesday	b) The third day of the week.
3) October	c) The first day of the week.
4) Thursday	d) Next after the first.
5) Weekend	e) The fourth month of the year.
6) April	f) Saturday and Sunday.
7) Second	g) The fifth day of the week.

Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

Exercise I.

Draw a line to match up these words with their definitions:
 Birinchi qatordagi so'zlarni ikkinchi qatordagi so'zlar bilan birlashtiring:

a) house	a piece of land used for farming.
b) sheep	a fruit grown on trees.
c) bed	a farmyard animal producing milk.
d) breakfast	a building people live in.
e) field	the coldest season.
f) apple	a farmyard animal producing wool.
g) winter	the first meal of the day.
h) cow	a piece of furniture used for sleeping on.

Exercise II.
 Write your own definition for each word:
 Quyidagi so'zlarning mosini toping:

- a) shoe
- b) camera
- s) vase
- d) kettle
- e) clock
- f) school



Exercise III.

Write in the missing letters so to find the whole word in the box:
 Nuqtalar o'rniga shunday harflarni qo'yingki, ramkadagi so'zlar hosil bo'lsin:


Sunny, super, suspect, submarine, sudden, summer, sugar, suitable, success.

- | | | |
|---------------------|-------------|-------------|
| a) <u>submarine</u> | d) sug..... | g) sun..... |
| b) suc..... | e) sui..... | h) sup..... |
| c) Sud..... | f) sum..... | i) sus..... |

Risolat ISMOILOVA

There are 11 items on the picture. Find them.

Boshqotirmadagi 11 ta rasmni toping.



JDPI qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi Umida NISHONOVA tayyorladi

FUNNY CROSS-WORD

Rasmlardagi jonivor va buyumlarning ingliz tilidagi nomini topib, kataklarni to'ldiring:

Across

Down

Crossword puzzle grid with 13 numbered starting points. Surrounding the grid are 13 numbered illustrations of various animals and objects: 1. goat, 2. cat, 3. rabbit, 4. pig, 5. mouse, 6. fox, 7. squirrel, 8. dog, 9. book, 10. girl, 11. alarm clock, 12. radio, 13. apple, 14. umbrella, 15. camera, 16. egg, 17. flower, 18. globe, 19. shirt, 20. car, 21. fish.

Illustrations of animals and objects numbered 1 through 7, corresponding to the crossword puzzle. Below the illustrations is a crossword puzzle grid with the letters A, N, I, M, A, L, S written vertically in the first column.

Mohira MUHAMMADJONOVA, Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi

Munira ISLOMOVA, Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 14-maktab o'quvchisi



BIR O'QUVCHI

Tanaffusda dimog'dor,
Hammaga tik boqar u.
Naq lochinga aylanib,
Ko'kda qanot qoqar u.

Chalinganda qo'ng'iroq,
Darrov yerga qo'nadi.
Savol bersa muallim,
Musichaga do'nadi.

Sabohat SA'DULLAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumanidagi
38-maktab o'quvchisi

KAMTARLIK

Ko'p intilma osmonga,
Yerga ham solgin nigoh.
Borolmaysan uzoqqa
Yerga boqmasang, o'rtoq.
Yulduzlar ko'p samoda,
Osmon yuksakdir biroq.
Yo'lingdan tosh chiqar goh,
Yerga boq, bo'lib ogoh.

Ko'kka boqib, kerilib,
Manmanlikka berilib.
Majruh bo'lib yotmagin
Yo'lda toshga urilib.

Kamtarga yordir kamol,
Manmanga bor-ku zavol.
Zaminday xokisor bo'l,
Shunda hayot bo'lar bol.

Ra'no ABDUMALIKOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
41-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

YOSHLIK BAHORI

Orzularing uchqur qush kabi,
Parvoz etsin keng samolarda.
Qayg'urmagin, mitti vujuding
Orom olsin sho'x navolarda.
Ozor chekkan murg'ak qalbingni,
Chayib olgin quyosh nurida.
Olam seni olqishlar bugun,
Ezgulik yig' yurak to'rida.
Yo'llaringga gul to'shasin baxt,
Iqbol bilan quvlashib yurgin.
Yoshlik senga bebaho bir taxt,
U bir bahor, qadriini bilgin.

Shirin JUMANAZAROVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumani

KO'NGLIM DAFTARIGA CHEKILGAN IMZO

Men sizga yuzlandim yana
Qalbimda jo'sh urgan hislarim aro.
Aslida hammadan qizg'onganlarim,
Bir dam vujudimga berasiz orom.

Ko'ngilga quyilgan dur misralardan
Dunyoda eng go'zal marjon tizaman.
Go'dakdek musaffo, pok tuyg'u bilan,
Ko'rkam jilo berib uni bezayman.

Lovillab yonadi, o'chmagay sira
Ular sho'x qalbimda uyg'otgan otash.
She'rinda jam bo'lgan mehrim, g'ururim
Va jo'shqin yurakning so'zlari uyqash.

Ko'nglim daftariga chekilgan imzo,
She'rilarim hayotda topgan ardog'im.
Atirgul, binafsha misol beg'ubor,
Qo'limda tik tutgan mag'rur bayrog'im...
She'rilarim...

Shahodatbonu MURODOVA

Yosh qalamkashlar ijodiga bir nazar

SHE'R – YURAKNING NAFIS CHECHAGI

Uning rang-barang filiosidan ko'ngillar yayraydi. Forning yangragan navosi, tanburning mungli nolasi quchoq'idan otilib chiqqan zalvortli so'zlar og'ushida sarxush bo'lganda, she'rning, so'zning kuchiga, qudratiga qoyil qolmay ilojimiz yo'q. Biroq, ana shunday ulug' va mo'lalab kalomga ba'zan befarq qaraydiganlar ham yo'q emas. Vazifam she'rilar bilan ishlash bo'lgani uchun hisobsiz she'riy maktublarni tahlil qilishga lo'g'ri keladi.

Kuni kecha qo'lida bir dasta she'r ko'tarib tahriri-yatimizga kirib kelgan ayol va uning eshik ortida xijolatimiz turgan «shoira» qizi hayratimni oshirdi.

– Qizim tanlovda qatnashmoqchi. Tanlov shartiga ko'ra uning yozgan she'rleri gazetada chiqqan bo'lishi kerak ekan... Shunga she'r olib kelgandik, – deydi ona.

– Qizingizning o'zi qani? – so'rayman undan.

– U tashqarida turibdi, kirishga iymanyapti...

Qizchani ichkariga chorladim. U gunohkordek ko'zlarini yerdan uzmasdi. Yozgan she'rilariga ko'z yugurtirdim. Tanish satrlar. Yo'q, bu she'rnlarni qarshimda turgan qiz yozmagan. Shunday bo'lsa ham uning ko'ngliga qo'l solishga urindim:

– Bu she'rilar sizniki emas-ku?!...

Biroz jimlikdan so'ng qiz past ovoza so'z boshladi:

– Mening she'r yozishga ishtiyoqim yo'q... Ustozim bilan yudagilar tanlovda qatnashishga majbur qilish-yapti.

Qizchani matonatiga lol qoldim... Bu voqea yodimga tunov kuni kuyunchak bolalar shoiri Abdurahmon Akbar keltirgan «Qo'rqqoq trolleybus» hamda «Hayot gulshani» nomli bir juft kitobni tushirdi. «Qo'rqqoq trolleybus» kitobi «Buxoro» nashriyatida

1998-yilda chop etilgan bo'lsa, «Hayot gulshani» kitobi ham aynan ana shu nashriyatda 2012-yilda chop etilgan ekan. Orada o'n to'rt yil farq bor.

«Qo'rqqoq trolleybus» kitobidan o'rin olgan «Botir bola» she'rini hukmingizga havola qilamiz.

Tan beringlar, do'stlarim,
Men kim – botir bolaman.
Hatto-ki sher oldidan,
Qo'rqmay o'ta olaman.

O'ylamanglar sira ham,
Yolg'on deya so'zlari.
O'tdim yo'lbars yonidan,
Yonsa hamki ko'zlari.

Bir juft bo'ri burchakda,
Xurrak otar berilib.
Bemalol o'tib ketdim,
Alpomishdek kerilib.

Ro'baro' bo'ldi ayiq,
Ekan shimol tog'idan.
Hayron bo'lmang, kelyapman,
Men hayvonot bog'idan.



«Botir bola» she'ri bundan roppa-rosa o'n to'rt yil avval yozilgan bo'lsa-da, 2001-yilda tug'ilgan ijodkor qizimizning 2012-yilda chop etilgan kitobchasida ham «Botir bola» she'ri aynan keltirilganiga guvoh bo'ldik.

Shuningdek, «O'rmondagi voqea» she'ri

«Eshitmadim demanglar» she'ri bilan

(nomini hisobga olmaganda) bir xil

ekanligi hayratimni oshirdi. Navoiy

bobomizning tokchada qoldirgan

baytlarini o'g'irlab olgan shogirdi bir

davrada uni ishtiyoq bilan o'qiganida,

Navoiy Hazratlari «Men mol o'g'rilarini

bilardim, lekin so'z o'g'rilarini

ko'rmagandim», deya e'tiroz bildirgan

ekanlar. Bas, shunday ekan, so'z ilohiy

qudrat, uni qadrlamoq har

birimizning burchimizdir. Bolalar

dunyosi nihoyatda beg'ubor

va pokiza dunyo. Ularni

to'g'ri yo'lga boshlash har

birimizning zimmamizdagi

yuksak vazifadir.

Aziz o'quvchim, qog'oz qoralashdan avval, o'z qalbingizga quloq tuting. Beg'ubor, pok tuyg'ularingiz Sizga hech qachon pand bermaydi.

AXTAMQULI

Bugungi kunda sport yoshlarimiz hayotining ma'no-mazmuniga aylanib ulgurdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, mamlakatimizda sport bilan shug'ullanuvchi qizlarning safi yildan yilga ortib borayotgani quvonarli, albatta.



YOSH MURABBIY MUVAFFAQIYATI

Irina Gevorgyan ham bolaligidan sportning shaxmat turiga o'zgacha mehr qo'yib, uning sir-asrorlarini mukammal o'rganish uchun o'z ustida tinimsiz mehnat qildi. Bu sa'y-harakatlari sabab, o'smirlar davridayoq xalqaro toifadagi sport ustasi, FIDE ustasi unvonini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. 2006-yil shaxmatchimiz hayotida unutilmas voqealarga boy bo'ldi. U dastlab O'zbekiston chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etib, umumiy natijalarga ko'ra ikkinchi o'rin sohibasiga aylandi. Keyinchalik ushbu musobaqadagi muvaffaqiyatli ishtiroki bilan malakali murabbiylar nazariga tushib, O'zbekiston terma jamoasi a'zolariga qabul qilindi.

Shaxmatchimiz terma

jamoada safida bir nechta nufuzli musobaqalar, xususan, Butunjahon shaxmat olimpiadasida ishtirok etib, katta tajriba to'plash imkoniga ega bo'ldi. 2009-yil Toshkent shahar hokimi kubogi uchun o'tkazilgan turnirda ham Irina barcha raqiblaridan kuchli ekanini isbotlab, 1-o'rin sohibasiga aylandi. Sportchining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, u mehnatdan qochmaydi, doimo bilimli va yetakchi bo'lishga intiladi. Irinaning ingliz va nemis tillarini mukammal bilishi so'zimizning yaqqol tasdiqidir.

Yosh bo'lishiga qaramay, ayni paytda u xalqaro turnirlarda to'plagan tajribasini sportga endigina qadam qo'yyotgan jangi sportchilarga o'rgatish bilan band. Hozirda poytaxtimizdagi 3-ixtisos-

lashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari maktabida katta murabbiy bo'lib ishlab kelmoqda.

– Sport insonni ham ma'nan, ham jismonan chiniqtiradi, komillik sari yetaklaydi. Inson yoshligidan sportning biror-bir turi bilan muntazam shug'ullansa, sog'lom tafakurga ega bo'ladi, maqsadiga erishadi, – deydi yosh murabbiy Irina Gevorgyan.

Darhaqiqat, inson bolaligidan o'z oldiga jiddiy maqsad qo'yib, bu yo'lda tinimsiz mehnat qilsa, qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o'tsa, uning mevasi juda totli bo'ladi.

Buning isbotini yosh murabbiy Irina misolida ko'rib turibsiz.

Yulduzoy O'RMONOVA

BIZ OBOD VA MUSTAQIL YURT FARZANDLARIMIZ

Farg'ona viloyat hokimligi, viloyat IIB, viloyat Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi, Ma'naviyat targ'ibot markazi viloyat bo'limi va yana bir qancha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda joylarda o'quvchi-yoshlar ishtirokida sport tadbirlari o'tkazildi.

Marg'ilon shahridagi 11-, 18-umumta'lim maktablarida «Biz obod va mustaqil yurt farzandlarimiz» mavzusida o'tkazilgan tadbir haqiqiy sport bayramiga aylanib ketdi.



Musobaqalarda o'quvchilar sportning mini futbol, voleybol, stol tennis, yengil atletika, shaxmat-shashka turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar.

O'zaro do'stona ruhda o'tgan mazkur bellashuvlarda faol qatnashgan o'quvchilarga viloyat, shahar hokimliklarining «Faxriy yorliqlari, homiy tashkilotlarning esdalik sovg'alari topshirildi.

*Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri*

Suzish – sport turlari orasida salomatlikni mustahkamlash, kishida qat'iy iroda va matonatni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, suzish mashg'ulotlari chog'ida sportchi yengil atletika bilan shug'ullanuvchilarga qaraganda to'rt barobar ko'p energiya sarf qilgan ekan. Bu mashg'ulot inson umurtqa pog'onasining to'g'ri o'sishiga xizmat qiladi, qon aylanish tizimiga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, suzish ichki a'zolar faoliyatini to'g'ri ishlashiga, insonda qat'iy immunitet hosil qilib, mavsumiy kasalliklarning oldini olishga ko'maklashadi.

Keyingi yillarda yurtimizda mazkur sport turini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, o'tgan besh yil ichida yurtimizning barcha viloyatlarida zamon talablari asosida 14 ta suzish havzasi barpo etildi, 83 tasi kapital ta'mirlandi.

Suv sportining ahamiyati va bu boradagi mavjud imkoniyatlar bilan tanishish maqsadida poytaxtimizning Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi faoliyati bilan tanishishga harakat qildik.

Markazga kirib borar ekan, bu yerda sportchilar uchun yaratilgan qulayliklar, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilinishini ko'rib, ko'zingiz quvonadi.

– Saroyimiz 2007-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda bu yerda suzish bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni 800 nafardan oshib ketdi. Hozir yozgi ta'til bo'lganligi bois, suv sport saroyimizga keluvchilar yanada ko'paymoqda, – deydi markazning suzish bo'yicha murabbiyi Shavkat Xo'jayev.

– Ayni paytda yurtimizda yozgi ta'til mavsumi o'tib bormoqda. Bu vaqtda o'ta-onalar tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan ba'zi bolalar ochiq suv havzalarida cho'milishadi. Bu esa bir qator ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin. Avvalo, tabiat va oqar suvlarda ekologik muvozanat buzilganligi bois, bunday joylarda cho'milgan bolalar turli yuqumli kasalliklarni yuqtirib olishlari mumkin. Qolaversa, murabbiy nazorati o'rnatilmagan hududlarda cho'milish hayot uchun xavflidir, – deydi suv sport saroyi yetakchi murabbiylaridan biri Nadejda Viktorovna.

Albatta, yozgi ta'tilda maroqli hordiq chiqarayotgan bolalar yuqoridagi ko'rsatmalarga to'la rioya qilib, faqatgina murabbiy nazoratidagi suzish havzalarida cho'milishadi, degan umiddamiz. Zero, Sizing salomatligingiz yaqinlaringizning quvonchi va xotirjamligidir.

Shahnoza SATTOROVA



SUZISH – SALOMATLIK GAROVI

Keling, ertak o'qiyimiz!

Bir borekan, bir yo'q ekan. Qishloq chekkasidagi tepalikda bir tup o'rik daraxti o'sar ekan. U har yili odamlarga ko'p-ko'p meva berarkan. Ammo atrofida daraxtlar bo'lmagan uchun juda zerikarkan.

Bir kuni ertalab uyg'onsa, yonida nimadir yaraqlab turganmish.
 - Sen kimsan? - so'rabdi O'rik hayron bo'lib.
 - Men Tomchiman, - debdi boyagi yaraqlab turgan narsa. - Yomg'irdan so'ng do'stlarim bilan shu chuqurchada qoldik.
 - Kel, o'rtoq bo'lamiz. Lekin meni tashlab ketmaysan-a? Chunki qanotli do'stlarim kuz kelishi bilan uzoqlarga uchib ketishadi-da, - debdi O'rik xavotirlanib.
 - Men seni hech qachon tashlab ketmayman, - so'z beribdi Tomchi.

Shunday qilib, ikki o'rtoq kun bo'yi mazza qilib o'ynashibdi. Lekin O'rikning quvonchi uzoqqa cho'zilmabdi. Ertalab uyg'onsa, do'sti yo'q emish. Tomchi meni aldadi, deb o'ylab xafa bo'libdi. Shunda qayerdandir do'stining ovozi eshitilbdi:

- O'rikjon, hoy O'rikjon.
 O'rik quloq solsa, ovoz osmondagi oppoq bulutdan kelayotgan ekan.
 - Meni sen chaqirayapsanmi? - debdi O'rik hayratlanib.

O'RIK VA TOMCHI



Zulayho MO'MINOVA chizgan rasm

- Ha, ha, axir men do'sting Tomchiman, - debdi Bulut tobora pastlab.
 - Qanday qilib osmonga chiqib olding, meni ham olib ket, - debdi O'rik havasi kelib.
 - Meni Quyoshbobo bulutga chiqarib qo'ydi. Lekin sen yerda yashashing, odamlarga meva berishing kerak. Men yana yoningga qaytaman, - degancha bulutlarga qo'shilib olishabdi Tomchi.
 O'rik yana yolg'iz qolibdi. Kynlar borgan sayin isib, O'rikning rosa suv ichgisi kelibdi. Chanqog'ini qondiray

desa, yon-atrofida birorta ariq yo'q emish. Bir mahal uning yaproqlarini kimdir silaganday bo'libdi. Qarasa, yaprog'ida Tomchi turgan ekan.

- Men ko'p o'rtoqlarimni boshlab senga yordamga keldim, - debdi u.
 Kunlar ketidan kunlar o'tib, kuz kelibdi. Daraxtning barglari asta-sekin to'kila boshlabdi. Izg'irin turib, O'rikning tanasi muzlay boshlabdi. Shunda u Tomchini eslabdi: «Hozir yonimda bo'lganida, albatta, yordam berardi...» Shu payt osmondan oppoq qor yog'ib, daraxtlarga oq ko'rpa yopibdi.
 - Qalay, ancha isindingmi? - so'rabdi tanish ovoz.
 - Hoy Tomchi, bu senmisan? Qayerdasan? - so'rabdi O'rik.
 - Qorning ichidaman, - kulibdi qadrdon do'sti.
 - Endi ketib qolmaysanmi? - yalinibdi daraxt.
 - Yo'q, endi bahorgacha yoningda qolaman, - debdi Tomchi.

Bahor kelib, O'rik daraxti odamlarga yana ko'p meva beribdi. Tomchi esa dunyo kezibdi. Ammo do'stiga yordam kerak bo'lganida, albatta, uning yoniga yetib kelar emish.

Umud KOMILIY,
 Xorazm viloyati, Xiva shahridagi
 1-umumta'lim maktabining
 9-sinf o'quvchisi

O'qing, qiziq!

ODAMGA O'XSHASH ILDIZ



Qadimdan Sharq tabobatida jenshen ko'plab kasalliklarga davo deb hisoblangan. Uning ildizi odam gavdasi shakliga o'xshashdir. Shu bois,

xitoy tilida u «Quyosh odam», degan ma'noni anglatadi. Uzoq Sharqda, Xitoyda, Koreyada o'suvchi, bahor va kuzda bo'y ko'rsatuvchi bu o'simlikni topish juda mushkul.

UYQU O'TI

Buni qarangi, shunday o'simlik ham bor ekan. Uyqu o'ti juda erta, qorlar erishi bilan gullaydi. Balki shu bois, binafsharang gullarining ustki qismi momiq tukchalar bilan qoplangandir. Bu tukchalar ayoqdan himoya qiladi. Shuningdek, uning bahorgi ilk barglari ham tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. Yozda paydo bo'lgan yangi barglarida esa bunday tukchalarni ko'rmaymiz.



MANZURA tayyorladi

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!



Chizma atrofidagi yonma-yon harflarni o'qish bilan so'zlar hosil qiling.
 Qani, kim eng ko'p so'z hosil qila oladi?!

Husan ORIPOV tuzdi

XANDILAR



- Yoshing nechada, bolajon?
 - Besh yoshdaman.
 - Bo'lishi mumkin emas, axir bo'ying soyabonim bilan teppateng-ku!
 - Soyaboningiz necha yoshda?..



O'qituvchi:
 - Bolalar, o'ylab ko'ring, chumoli ertadan kechgacha ishlayveradi, ishlayveradi. Keyin nima bo'ladi?
 O'quvchi:
 - Keyin qandaydir yaramas uni ezib o'tib ketadi...

Fayzulla ABDULLAYEV tayyorladi



Bosh muharrir
 Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
 Bahodir G'ANIYEV,
 Svetlana INOMOVA,
 Murtazo SULTONOV,
 Zoir ISAJONOV,
 Sa'dullo TURSINOV
 (Bosh muharrir o'rinsosari),
 Feruza ADILOVA
 (mas'ul kotib),
 Zikrilla TESHABOYEV,
 Quroqboy ERGASHEV,
 Sobitxon TUR'UNOV

Navbatchi muharrir
 Dilorom HOTAMOVA
 Rassom
 Feruz MATYOQUBOV
 Dizayner
 Olovuddin ORIPOV
 Musahhib
 Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilmiz:
 Toshkent shahri,
 Navoiy ko'chasi, 30-uy.
 Indeks: 100129.
 Obuna indeksi: 198.
 e-mail:
 info@tongyulduzi.uz
 www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
 Tel./faks:
 (99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
 NMIUda chop etildi.
 Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
 Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
 2 bosma taboq.
 ISSN 2010-6092
 Adadi - 47992
 Buyurtma N: J 7436

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
 «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
 «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro sayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
 0208-raqam bilan 2007-yil
 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.